

AVTOMOBIL HAYDOVCHILARNI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISH USLUBINI TAKOMILASHTIRISHDA TA'LIM PEDAGOGIKASINING O'RNI

Jo'rayev Yashnarjon Rovshan o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti

Yo'l harakati tashkil etish kafedrası, katta o'qituvchisi

e-mail: online.jorayev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672325>

Annotatsiya: Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda asosiy masuliyat Avtomobil haydovchilari zvenosiga to'g'ri keladi. Agar haydovchi yo'lovchilarni tashish faoliyati bilan shug'ullansa mas'uliyat yanada oshadi. Yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishi omillariga haydovchining yo'l harakati qoidalarini buzishi bo'lmoqda. Yuqorida keltirilgan statistika ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini bo'yicha bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish lozim. Innovatsion o'qitish uslublarini joriy etish yo'li bilan haydovchilarni qayta tayyorlash, shuningdek ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Haydovchilarni sifat jihatdan tayyorlashda mazkur maqola dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Avtomobil haydovchisi, ta'lim usullari, yo'l harakati qoidalarini, bulutli tizim, mobil ilova, o'yin texnologiyasi, yo'l-transport hodisalari, inson xavfsizligi, innovatsion o'qitish, havfsiz harakatlanish.

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ ВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация: Основная ответственность в обеспечении безопасности дорожного движения лежит на звене водителей автомобилей. Ответственность возрастает еще больше, если водитель занимается пассажирскими перевозками. Факторами возникновения ДТП являются нарушения водителем правил дорожного движения. Как видно из приведенной выше статистики, необходимо постоянно повышать знания водителей о правилах дорожного движения. Необходимо дальнейшее совершенствование системы переподготовки водителей, а также повышения их квалификации путем внедрения инновационных методов обучения. Данная статья актуальна для качественной подготовки водителей.

Ключевые слова: водитель автомобиля, методы обучения, правила дорожного движения, облачная система, мобильное приложение, игровые технологии, дорожно-транспортные происшествия, безопасность человека, инновационное обучение, безопасное движение.

THE ROLE OF EDUCATIONAL PEDAGOGICS IN IMPROVING THE METHOD OF IMPROVING THE QUALITY OF DRIVER TRAINING

Annotation: The main responsibility for traffic safety corresponds to car drivers. Liability will increase if the driver is engaged in passenger transportation activities. Violation of traffic rules by the driver is one of the factors of traffic accidents. It is necessary to retreat the system of drivers, as well as the system of their own advanced training through the introduction of innovative teaching methods. This article is relevant for quality assurance of drivers.

Keywords: Car Driver, Methods of Car Drivers, Rules, Cloud Technology, Accidental Technology, Innovative Trials, Human Rights, Safety Movement.

Kirish.

Dunyoda avtomobil yo'llarida transport vositalarining kun sayin ko'payib borishi qator muammolarni keltirib chiqaradi jumladan: atrof muhitning ifloslanishi, yo'llarda tirbandlikning kelib chiqishi eng achinarlisi avtomobil yo'llarida yo'l-transport hodisalarining sodir bo'lishi va uning oqibatida insonlarning hayotdan ko'z yumishi yoki turli darajada jarohat olishidir. Dunyo bo'yicha har yili 1 millionadan ortiq insonlar aynan yo'l-transport hodisalarida halok bo'ladi. Buning oqibatida minlgab oilalar ma'naviy, xalqaro tijorat tashkilotlari moddiy zarar ko'radi. Dunyo bo'ylab yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Ammo yo'l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan avtomobil haydovchilarini o'qitishning ilmiy asoslarga usullarini ishlab chiqish lozim.

Jahon sag'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga asosan odamlar o'limining asosiy sabablari ro'yhatida yo'l-transport hodisalari sakkizinchi o'rinni egallagan. Avtomaktablarda va oliy ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarini tayyorlash tizimini rivojlantirish, yo'l-transport hodisalarida birinchi tibbiy yordamni ko'rsata olish hamda avtomobil haydovchilariga havfsiz harakatlanish qoidalarini o'rgatish usullarini ishlab chiqish va tadqiqotlarda ilmiy asoslash zaruriyati yuzaga kelgan.

Respublikamizda, so'ngi yillarda avtomobil haydovchilarining yo'llarda havfsiz harakatlanishlari davlat siyosati darajasida qaralib, 2022-yil 26 yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida prezident yo'l harakati qoidalarini buzilishi va avariya holatlari keskin oshayotganiga e'tibor qaratdi. Muammoni bartaraf qilish uchun o'qitish tizimini tubdan takomillashtirish kerakligini takidlab o'tdilar,¹ Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish, yo'l harakati xavfsizligi ta'minlash faoliyati uchun kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish kerakligini anglatadi. Avtomobil haydovchilari va avtotransport vositalarining yo'llarda ortishi, o'z-o'zidan harakat xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan talabni yani dolzarbligini anglatadi. Avtomobil haydovchilarni sifat jihatdan tayyorlashda mazkur dissertatsiya ishi mavzusi dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190 sonli va 2022 yil 14 iyuldagi PQ-316 qarori bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umum milliy dasturi hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 aprel kunidagi "Ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalarini targ'ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 212-son qarori imzolangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Xorij olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, avtomobil haydovchilarini tayyorlash bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A.N.Nikolayev, S.V. Savchenko, I.I. Lyubimov, Ye.V. Bondarenko, V.I. Rassoja, R.F.Kalimullin A.G.Asmolov, Ye.V.Berejnova, I.A.Kolesnikova, V. V.Kraevskiy va boshqalarning ishlari talabalar va avtomobil haydovchilarini tayyorlashga qaratilgan.²

¹ 2022-yil 26 yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonoich Mirziyoyevning so'zlagan nutqlaridan keltirilgan.

² Николаев А.Н. Подготовка по вождению кандидатов в водители. М.: Аник, 2018. 73 с.; Савченко С.В. Авторская методика практического обучения вождению // Автошкола, 2017. материалы XIV Междунар. конф. М., 2017. С. 267-272.; И.И. Любимов, Е.В. Бондаренко, В.И. Рассаха, Р.Ф. Калимуллин. Методические основы подготовки водителей: учебное пособие М 54. – Оренбург: ГОУ ОГУ, 2008. - 215 с.; Асмолов А.Г. На пути к развивающему вариативному образованию // Педагогический поиск. - 1997. - № 5. - С.1-2.; Бережнова Е.В. Основы учебно-исследовательской деятельности студентов: учебник / Е.В. Бережнова, В.В. Краевский. - М.: «Академия», 2005.- 128с.; . Колесникова, И. А. Коммуникативная деятельность педагога: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / И. А. Колесникова; под ред. В.2020.-130с.

Q.X. Azizov, S.N. Azemsha, K.M.Nazarov, S.M. Kodirov, M.N.Usmanova va boshqa mutaxassislar avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligi va yo'l transport hodisasi tahlili bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.³

Mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olimlaridan H.F.Oltinboyevich "Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish", masofaviy ta'lim tizimi asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish muammolari bo'yicha M.M.Aripov, A.G'.Hayitov, F.R.Muradova, M.D.Pardayeva, F.M.Zakirova, U.Y.Yuldashev va boshqalarni alohida e'tirof etish mumkun.

Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar manbalarini tahliliga ko'ra barcha olimlar ta'limda pedagogikani rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar, harakat xavfsizligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish. Yo'llarda yo'l transport hodisalarini avtomobil haydovchilar aybi bilan sodir bo'lishini kamaytirish, ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarni tayyorlash sifatini oshirish uslubini takomillashtirish bo'yicha pedagogik tadqiqotlarni o'rganish, ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Avtomobil haydovchilarning o'qitish uslubining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish dars jarayonini o'zida bilimni nazorat qilish guruhning biladigan bilimi bilan emas balki bilmaydigan bilimi o'rgatish. (Bulutli tizimga asoslangan holda). Avtomobil haydovchilarini dars jarayonlarini o'qitish usullini takomillashtirish;

Toshkent davlat transport universitetining yo'l harakati qoidalari fani o'qitiladigan guruhlar o'rtasida amalga oshirish. (Talabalarning aksariyat qismi o'qishni bitirgach avtomaktablarda faoliyat olib boradilar), Yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;


Avtomaktab o'qituvchilari hamda Avtomobil haydovchilarini tayyorlashning masofadan turib xarajatlarsiz mustaqil ta'lim uslubini (mobil ilovaga asoslangan) takomillashtirish. O'qitishning masofadan turib va mustaqil ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va takomillashtirish;

Mavjud avtomobil haydovchilarni tayyorlash modelini takomillashtirish. Yo'llarda avtomobil haydovchilari tufayli yo'l transport hodisalarini vujudga kelishi sabablarini kamaytirish hamda pedagogik tajribalarda o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurati davlat ahamiyatidagi muammo bo'lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).


Yo'l harakati qoidalari fani ta'limi jarayonida talabalarning Yo'larda harakat xavfsizligi ko'nikmalarini hosil qilish, ularni yo'llarda xavfsiz harakatlanishlariga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad, amalga oshirish bosqichlari, ularning o'ziga xos nazorat qilish modellari, mantiqiy, statistik tahlilining o'tkazilish sharoitlari kabi holatlar o'z ifoasini topdi.

³ Azizov Q.X. "Harakat xavfsizligi xizmatlari asoslari" o'quv qo'llanma. 2009 yil, Toshkent, TAYI – 90 bet.; Azemsha S.N., Карасевич. Служба безопасности движения автомобильного перевозчика Гомель, 2016.; Kodirov. S.M, K.M.Nazarov. Yo'l-transport xodisalarini tahlili, T., TAYI, 2002-84 b.




1-rasm. O'zbekiston respublikasida turli ko'rinishdagi jarohatlanishlar statistikasi

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra jarohatlanishlar ichida yo'l transport hodisasi 2-o'rini egalaydi. Achinarlisi shundan bollalar o'rtasida jarohatlanish 25,7% tashkil etadi.



2-rasm. Yoshlar o'rtasida jarohatlanishlar statistikasi

Yoshlar o'rtasida jarohatlanganlar o'rganilganda kattalar o'rtasida 62,7%, bollalar o'rtasida 25,7%, O'smirlar o'rtasida 11,6% tashkil etmoqda bu esa soxada qilinishi kerak bo'lgan ishlar borligini anglatadi.



3-rasm. O'n yil davomida respublika hududida sodir etilgan yo'l-transport hosisalari

- So'ngi o'n yil davomida respublikadagi transport vositalari soni 72 foizga (2,1 mln.dan 3,6 mln.ga), aholi soni esa 21 foizga (29,1 mln.dan 35 mln.ga) oshgan.

- So'ngi o'n yil davomida respublika hududida sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining soni 11 foizga (7849/6982) kamayishiga erishilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Haydovchilarni tayyorlash, ularga bilim berish saviyasini oshirish, uning uslubiyotini takomillashtirish yoki ishlab chiqish haydovchilar malakasini oshirishning innovatsion usulini ishlab chiqish, uni masofada xarajatlarsiz oshirish uslubini ishlab chiqish bugungi kunning talabidir. Sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining haydovchilar aybi bilan sodir etilayotganini e'tiborga oladigan bo'lsak, haydovchilarni tayyorlash tizimi, haydovchilarning malakasini oshirish, harakat xavfsizligini ta'minlashga doir qonun, qaror va ularga tegishli o'zgarishlarni muntazam yetkazib turishimiz zarur. Shu sababli ilmiy tadqiqod dasturi to'rt bosqichda amalga oshirish kerak:

1-bosqich. Haydovchilarning o'qitishning innovatsion uslubining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish (dars jarayonini o'zida bilimni nazorat qilish guruhning biladigan bilimi bilan emas balki bilmaydigan bilimi o'rgatishdan iborat. Bulutli tizimga asoslangan holda).

2-bosqich. Loyihani amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish (Toshkent davlat transport universitetining yo'l harakati qoidalari fani o'qitiladigan guruhlar o'rtasida amalga oshirish (Talabalarning aksariyat qismi o'qishni bitrgach avtomaktablarda faoliyat olib boradilar), va bir necha avtomaktablarda amalga oshirish rejalashtirildi).

3-bosqich. Haydovchilar tayyorlash innovatsion usulini masofada xarajatlarsiz mustaqil ta'limini uslubini ishlab chiqishga oid ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

4-bosqich. Avtomobil haydovchilarini tayyorlash samarali modelini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi PQ-3127-sonli "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 maydagi 408-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 139-sonli qarori.
4. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova. – Namangan: NamDU, 2014. – 130-b.
5. Pedagogik diagnostika va korreksiya/X.A.Raxmatova, – Namangan 73-120-b.
6. Николаев А.Н. Подготовка по вождению кандидатов в водители. М.: Аник, 2018. 73 с.; Савченко С.В. Авторская методика практического обучения вождению // Автошкола, 2017. материалы XIV Междунар. конф. М., 2017. С. 267-272.;
7. И.И. Любимов, Е.В. Бондаренко, В.И. Рассоха, Р.Ф. Калимуллин. Методические основы подготовки водителей: учебное пособие М 54. – Оренбург: ГОУ ОГУ, 2008. - 215 с.;
8. Асмолов А.Г. На пути к развивающему вариативному образованию //Педагогический поиск. - 1997. - № 5. - С.1-2.;
9. Бережнова Е.В. Основы учебно-исследовательской деятельности студентов: учебник / Е.В. Бережнова, В.В. Краевский.- М.: «Академия»